



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## Auditorlik Firmalarining Professional Xizmatlarining Talablari

**Turumova Dildora Abdumannonovna**

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası o'qituvchisi

**Salohiddinova Madina Akmal qizi**

Jizzax politexnika instituti "Kibersport" fakulteti talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqola auditorlik firmalarining professional xizmatlariga bag'ishlangan. Bu maqolada auditorlik firmalarining bir qancha professional xizmatlari, shuningdek boshqa turdosh xizmatlari, xizmatlar natijalari to'g'risidagi hisobot hamda o'z o'rnida professional xizmatlarni ko'rsatish uchun talablar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Auditorlik firmalari, audit xizmati, professional xizmatlar, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun, buxgalteriya hisobi, audit va moliyaviy hisobot, mijoz korxonasi, moliya-xo'jalik faoliyati, konsalting xizmati, professional xizmat ko'rsatish talablari, ekspert xizmati.

Auditorlik firmalari turli sohalarida: buxgalteriya hisobi, huquqshunoslik, soliqqa tortish va moliya – yuqori malakali mutaxassislarini o'z faoliyatiga jalb qilgani sababli, ushbu xizmatlarning sifati va keng qamrovi ortib bormoqda. Xalqaro va milliy auditorlik firmalari tomonidan taqdim etilayotgan professional xizmatlar soni, turi va hajmi har yili sezilarli darajada o'sishda davom etmoqda. Bu esa korxonalar va tashkilotlar uchun ishonchli va puxta xizmatlarni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy auditorlik faoliyatini yurituvchi auditorlik firmalari olib boradigan xizmatlarni asosiy ikki turga bo'lish mumkin:

1. **Audit xizmatlari** - moliyaviy hisobotlarning to'g'ri va ishonchli ekanligini tekshirish, qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish hamda tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.
2. **Professional xizmatlar** - tashkilotning strategik, huquqiy va operatsion jihatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Hozirda Respublikamizda professional xizmatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab beruvchi va tartibga soluvchi bir qator me'yoriy hujjatlar ham qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun" (25.02.2021-y. №677-son yangi tahrirdagi qabul qilingan Qonun)ning 33-moddasiga asosan auditorlik tashkilotlari quyidagi professional xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin:

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish;
- yuridik shaxsning taftish komissiyasi (taftishchisi), investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish;
- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish masalalari bo'yicha maslahat berish;
- auditorlik tashkilotining shtatida soliq maslahatchisi mavjud bo'lganda yoxud shartnoma shartlari asosida uni jalb etgan holda, soliqqa oid qonunchilikni qo'llash, soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblar, deklaratsiyalar tuzish yuzasidan maslahatlar berish;
- moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy rejalashtirish, jumladan, biznes-rejalar tayyorlash, shuningdek, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv sohasida maslahat xizmatlarini taqdim etish.
- buxgalteriya hisobi, audit va moliyaviy hisobotlarni yuritish, soliqqa oid masalalar bo'yicha seminar va konferensiyalar tashkil etish hamda moliya-xo'jalik faoliyati va moliyaviy rejalashtirishni tahlil qilishga oid tadbirlar o'tkazish.
- buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va moliyaviy ma'lumotlarning axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyati standartlarida belgilangan boshqa tegishli xizmatlarni ham taqdim etishi mumkin. Auditorlik tashkilotlari o'z asosiy faoliyatlaridan tashqari, mijozlarning ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish va biznesni rivojlantirishda qo'shimcha yordam ko'rsatish maqsadida turdosh xizmatlarni ham taklif qilishi mumkin. Ushbu xizmatlar auditorlik faoliyati standartlarida belgilangan doiradan chiqmagan holda amalga oshiriladi. Bunday xizmatlarga quyidagilar kirishi mumkin:

**Moliyaviy maslahatchilik:** Moliya boshqaruvi, byudjet tuzish va moliyaviy rejalashtirish bo'yicha strategik maslahatlar berish orqali korxonalariga yordam berish.

**Ichki nazorat tizimini takomillashtirish:** Korxonaning ichki nazorat tizimlari samaradorligini oshirish uchun ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Risklarni boshqarish xizmatlari:** Korxonaga uchun moliyaviy, operatsion va huquqiy risklarni aniqlash va ularni boshqarish bo'yicha maxsus choralar ishlab chiqish.

**Soliq va huquqiy maslahatlar:** Soliq solish bilan bog'liq murakkab masalalarni hal qilishda, soliqqa oid qonunchilik talablari bo'yicha ko'rsatma berish va huquqiy xavf-xatarlardan himoya qilish.

**Buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilishini joriy qilish:** Zamonaviy texnologiyalar yordamida buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqaruvni soddalashtirish bo'yicha yechimlar taklif qilish.

**Moliyaviy hisobotlarni optimallashtirish:** Korxonaning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va tahliliy ko'rishda taqdim etish.

**Kadrlarni o'qitish va malaka oshirish:** Buxgalteriya, audit va moliyaviy boshqaruv sohasida mutaxassislar uchun trening va seminarlar o'tkazish.

Bularning barchasi nafaqat mijozlarning mavjud faoliyatini optimallashtirishga, balki uzoq muddatli strategik maqsadlarini amalga oshirishga ham ko'maklashadi. Auditorlik tashkilotlari ushbu turdosh xizmatlarni taqdim etish orqali mijozlar bilan yanada mustahkam hamkorlik o'rnatib, ular uchun qo'shimcha qiymat yaratadi.

Professional xizmatlar auditorlik tashkiloti va mijoz (buyurtmachi) o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Ushbu shartnoma doirasida auditor mijoz korxonasi hamda zarurat tug'ilganda, uchinchi tomonlar bilan kelishilgan vazifalarni bajaradi. Xizmatlar natijasida auditor

mijozga asoslangan xulosalar va tavsiyalarni o'z ichiga olgan hisobotni taqdim etadi. Qo'shimcha ravishda, professional xizmatlarni ko'rsatishda quyidagi jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi:

**Shartnoma mazmunining aniq belgilanishi:** Shartnoma doirasidagi barcha ishlar, majburiyatlar va javobgarliklar aniq ko'rsatilishi, auditorlik faoliyatining chegaralari belgilanishi lozim.

**Standartlarga moslik:** Xizmatlar milliy va xalqaro auditorlik standartlariga mos ravishda amalga oshirilishi, natijada hisobotlar ishonchliligi va tan olinishi ta'minlanadi.

**Tahliliy yondashuv:** Auditor faqat xulosalar berib qolmasdan, mijozning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini yaxshilashga qaratilgan tahliliy tavsiyalarni ham taklif qilishi kerak.

**Maxfiylik va axborot xavfsizligi:** Auditor mijozning tijorat sirlarini va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha qat'iy choralar ko'rishi zarur.

Ushbu tamoyillar asosida xizmatlar ko'rsatilganda, buyurtmachi korxonaga nafaqat auditorlik faoliyatidan foydalanadi, balki o'z faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun qimmatli ma'lumotlar va strategik ko'rsatmalarga ega bo'ladi.

Professional xizmatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotidan quyidagi talablar bajarilishi zarur:

### **1. Shartnoma doirasida ishlash.**

Auditorlik tashkiloti mijoz bilan kelishilgan shartnoma asosida ish olib borishi kerak. Shartnomada:

- ✓ Ko'rsatiladigan xizmat turi,
- ✓ Ish jarayonida qayta ishlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlarning manbalari,
- ✓ Xizmatni bajarish va yakunlash jarayonida tayyorlanishi lozim bo'lgan hujjatlar haqida aniq ma'lumotlar kiritilishi shart.

Bu shart auditor va mijoz o'rtasida tushunmovchiliklarni oldini oladi hamda xizmat sifatini ta'minlaydi.

### **2. Ishni rejalashtirish va tartibini belgilash.**

Professional xizmatlarni samarali amalga oshirish uchun jarayonning bosqichlari va ketma-ketligi oldindan rejalashtirilishi kerak. Bu ishga yondashuvni tizimli va nazorat qilinadigan darajada ushlab turishga yordam beradi.

### **3. Hujjatlashtirish va hisobdorlik**

Auditor xizmat ko'rsatish jarayonida to'plangan barcha ma'lumotlar va ishlab chiqilgan tavsiyalarni hujjatlashtirishi zarur. Bu:

- ✓ Kelgusida masalalarni tahlil qilishni osonlashtiradi,
- ✓ Taqdim etiladigan hisobotning asoslanganligini ta'minlaydi,
- ✓ Audit jarayonining ishonchliligi va shaffofligini oshiradi.

### **4. Ekspertlardan foydalanishda mas'uliyatni belgilash**

Agar auditorlik firmasi ishni bajarishda tashqi ekspertlar xizmatidan foydalansa, quyidagilar amalga oshirilishi lozim:

- Auditorlik tashkiloti va ekspert o'rtasida majburiyat va javobgarlik aniq belgilanishi,
- Xizmatlarning sifati va natijalariga nisbatan auditorlik tashkilotining umumiy javobgarligi saqlanishi.

Bu qadam jarayonning sifatini nazorat qilish va kutilmagan muammolarni oldini olishda muhimdir.

## 5. Doimiy nazorat

Xizmat ko'rsatish jarayonida ish va xodimlar faoliyati ustidan uzluksiz nazorat olib borilishi kerak. Bu:

- ✓ Ish sifatini ta'minlaydi,
- ✓ Jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

## 6. Kamchiliklarni va tavsiyalarni o'z ichiga olgan hisobot tayyorlash

Auditorlik xizmatlarining yakuniy natijasi sifatida mijozga:

- ✓ Bajarylган ishlar haqida batafsil hisobot,
- ✓ Aniqlangan kamchiliklar,
- ✓ Ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar kiritilgan hujjat taqdim etiladi. Bu hisobot mijozga faoliyatini yaxshilashda aniq yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

**Rejalashtirishning ahamiyati:** Jarayonning ketma-ketligi va tartibini oldindan belgilash xizmatlarning samaradorligi va sifatini oshiradi, mijozga belgilangan muddatda natija olish imkonini beradi.

**Hujjatlashtirish:** Har bir qadamni yozib borish, jarayonni huquqiy jihatdan himoya qiladi va xizmatlar natijasining ishonchligini ta'minlaydi.

**Nazoratning zarurati:** Doimiy nazorat mehnat intizomini kuchaytiradi, xodimlarning mas'uliyatini oshiradi va xizmat ko'rsatish jarayonidagi kamchiliklarni imkon qadar tezkorlik bilan bartaraf etish imkonini beradi.

Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari tashkilotlarning moliyaviy boshqaruvini yaxshilash, biznes jarayonlarini tartibga solish va faoliyat samaradorligini oshirish uchun muhim vositalardan biridir. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari mijoz korxonalarining moliyaviy va xo'jalik faoliyatini optimallashtirishga xizmat qiladi. Ushbu xizmatlar yuqori malaka, tartib va standartlarga mos ravishda tashkil etilsa, ular nafaqat korxonaning bugungi faoliyatini yaxshilash, balki kelgusida muvaffaqiyatli ishlash uchun mustahkam poydevor yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, auditorlik tashkilotlarining mas'uliyatli va malakali faoliyati mijozlar bilan uzoq muddatli ishonchli hamkorlikni rivojlantirishga asos bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2021 yil 25 fevral. O'RQ-677-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi qarori. Sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5210-son Qarori. <http://lex.uz>
3. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташқи аудит ўтказишнинг аҳамияти. *Science and Education*, 3(12), 1013-1022.
4. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(10), 640-645.
5. Abdumannonovna, T. D. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE INTERNAL AUDIT SERVICE IN BUSINESS ENTITIES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(8), 37-40.
6. Turumova, D. A., & o'g'li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 234-240.

7. Turumova, D. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI–AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 608-612.
8. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA MUHIMLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(14), 60-62.
9. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITING MOLIYAVIY BOZOR UCHUN ZARURLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 290-294.
10. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(22), 243-248.
11. Abdumannonovna, T. D. (2024). IMPORTANCE AND ROLE OF INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 6-9.
12. Abdumannonovna, T. D. (2024). DEVELOPMENT AND USEFUL ASPECTS OF AUDITING ACTIVITY IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 15-18.
13. Abdumannonovna, T. D., & Abdurasul, A. D. (2024). FORMATION OF STATE FINANCE AND AUDIT ACTIVITY IN THE EARLY PERIODS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 34-37.
14. Abdumannonovna, T. D., & Sherzod, K. S. (2024). SIGNIFICANCE AND ROLE OF INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 57-60.
15. Abdumannonovna, T. D. (2024). FRAUD DETECTION IN AN AUDIT. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 136-140.
16. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK DALILLARINING AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA DOLZARBLIGI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 469-473).
17. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHNING AFZALLIGI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 474-478).
18. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA EKSPERT ISHLARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 483-487).
19. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK XULOSASIDA ASOS BOLUVCHI MALUMOTLAR-AUDITORLIK DALILLARI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 494-498).
20. Abdumannonovna, T. D. (2024). THE AUDITOR'S PROFESSIONAL ETHICS ARE THE BASIS OF THE AUDITOR'S ACTIVITY. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 225-229.
21. Abdumannonovna, T. D. (2024). AUDITOR ISHI SIFATINI NAZORAT QILISHDA AUDITORLIK STANDARTLARINING UYG'UNLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 265-270.
22. Abdumannonovna, T. D., & Habibullo G'anijon o'g, A. (2024). The Role of International Audit Organizations in the Transition to International Standards in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 1-6.

23. Abdumannonovna, T. D. (2024). An Understanding of the Auditor's Professional Ethics and its Importance in the Auditor's Work. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 7-11.
24. Abdumannonovna, T. D. (2024). LICENSING PROCEDURE OF AUDITING ACTIVITIES IN UZBEKISTAN AND CURRENT RESULTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 35-40.
25. Abdumannonovna, T. D. (2024). STUDYING THE COMPANY'S ACTIVITIES AND ACCOUNTING DURING THE AUDITOR'S INSPECTION. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(2), 21-27.
26. Abdumannonovna, T. D. (2024). Purpose, Tasks, Necessity of Audit in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 89-92.
27. Abdumannonovna, T. D. (2024). Methods of Obtaining Audit Evidence. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 221-226.
28. Abdumannonovna, T. D. (2024). EFFECTIVE RESULTS OF APPLYING ANALYTICAL PROCEDURES IN AUDITING.
29. Abdumannonovna, T. D. (2024). EXTERNAL AUDITORS AND THEIR LIABILITY TO THIRD PARTIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 71-75.
30. Abdumannonovna, T. D. (2024). Auditorlik Tekshiruvida Firibgarlikni Aniqlashda Professionallik Qobiliyatini Qo'llash. *Miasto Przyszłości*, 45, 138-144.